

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.B.10.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

AKBAROV SARVARBEK BAXROMBOY O‘G‘LI

**MARKAZIY FARG‘ONA SUV OMBORINING TA‘SIR ZONASI VA UNGA
TUTASH HUDUDLAR TUPROQLARINING EKOMELIORATIV HOLATI**

03.00.13-Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2026

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological
sciences**

Akbarov Sarvarbek Baxromboy o‘g‘li

Markaziy Farg‘ona suv omborining ta‘sir zonasi va unga tutash hududlar
tuproqlarining ekomeliorativ holati.....3

Акбаров Сарварбек Бахромбой угли

Экомелиоративное состояние почв в зоне влияния Центрально-Ферганского
водохранилища и прилегающих территорий21

Akbarov Sarvarbek Bakhromboy ugli

Ecomeliorative state of soils in the zone of influence of the Central Fergana
reservoir and its adjacent territories.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.B.10.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

AKBAROV SARVARBEK BAXROMBOY O‘G‘LI

**“MARKAZIY FARG‘ONA SUV OMBORINING TA‘SIR ZONASI VA UNGA
TUTASH HUDUDLAR TUPROQLARINING EKOMELIORATIV HOLATI”**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2025.3.PhD/B1584 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim tarmog'ida (www.ziynet.uz). joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Isakov Validjan Yunusovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: Parpiyev G'ofurjon Toxirovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Sotiboldiyeva Go'zalxon Tolibjonovna
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.B.10.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "14" 04 soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil 150100. Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; E-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (722 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil 150100. Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "01" 04 da tarqatildi.
(2026-yil 01 04 daqi No 4 - raqamli restr bayonnomasi.)



Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., professor

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

G'.Yuldashev

U.B.Mirzayev

A.T.Turdaliyev

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda BMTning “Global yer istiqbollari” hisobotiga ko‘ra, “dunyo yer fondining 40 foizi degradatsiyaga uchragani va bu jarayon 3,2 milliard insonning farovonligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani global ekologik muammoga aylandi”¹. Yer resurslarining qisqarishi va tuproq sifatining yomonlashuvi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli degradatsiyalangan tuproqlarning xossa-xususiyatlarini yaxshilash, unumdorligini qayta tiklash va bunday yerlardan ishlab chiqarishda samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish va qishloq xo‘jaligida ekologik-meliorativ tadbirlarni zamonaviy usullarda, ya‘ni aerokosmik, masofaviy zondlash, geoinformatsion tizimlardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada sug‘orish tizimlari, jumladan, suv omborlarining atrof-dagi tuproq qoplamiga ko‘rsatayotgan murakkab dinamik ta‘sirini o‘rganishda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tadqiqotlar olib borish va olingan ma‘lumotlar asosida samarali choralarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda suv tanqisligi va antropogen bosimlar sharoitida sug‘oriladigan yerlarning ekologik va meliorativ holatini kompleks baholash, ekologik meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini saqlash, oshirish va ulardan samarali foydalanishga oid ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “Yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish” muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu bois, respublikamizda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 avgustdagi “Suv resurslaridan samarali foydalanish va suv ta‘minotini yaxshilashga oid davlat dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”² gi PF-128-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 5-fevraldagi “Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 55-sonli Qarori va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi kabi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

¹ United Nations Convention to Combat Desertification (UNCCD). Global Land Outlook 2: Land Restoration for Recovery and Resilience. – Bonn: UNCCD, 2022. – P. 13-15.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 avgustdagi “Suv resurslaridan samarali foydalanish va suv ta‘minotini yaxshilashga oid davlat dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PF-128-son Farmoni

rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'oriladigan tuproqlarining genezisi, fizik-kimyoviy xossalari, sho'rlanish jarayonlari hamda sizot suvlari rejimining meliorativ holatga ta'siri bo'yicha ko'plab ishlar mavjud. So'nggi yillarda GIS va geostatistik usullar sho'rlanish hamda namlanishning fazoviy-vaqtinchalik dinamikasini aniqlashda qo'llanilib, ekomeliorativ monitoringning aniqligini oshirishda xorij va mamlakatimiz olimlaridan A.Middendorf, S.S.Neustruyev, V.A.Kovda, M.A.Pankov, A.N.Rozanov, I.M.Yashin, I.I.Vasenev, A.Ahmad, M.Afzal, R.Garrison, A.Kabata-Pendias, Arnold, I.Hinrich R.Q.Qo'ziyev, A.Ismanov, G'.Yuldashev N.Y.Abduraxmonov, U.T.Sobitov, S.X.Zakirova, N.B.Raupova, N.I.Shodiyeva, A.Maksudov, K.M.Mirzajonov, V.Y.Isaqov, R.Kurvontayev, Z.A.Jabbarov, G'.T.Parpiyev, M.T.Isag'aliyev, A.T.Turdaliyev, U.B.Mirzayev, D.M.Xoldarov, X.A.Abduxakimova, N.N.Qalandarov, Sh.Eshpo'latov, G.T.Sotiboldiyeva, D.Y.Darmonov, M.A.Yusupova, A.A.Raxmonov, M.V.Obidov, M.M.Xaydarov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Ammo Markaziy Farg'ona suv ombori ta'sirida, uning ta'sir zonasi va unga tutash hududlarda shakllangan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy, ekologik va meliorativ xossa-xususiyatlarining o'zgarishlariga qaratilgan tadqiqotlarga yetarlicha ahamiyat berilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qo'qon davlat universiteti ilmiy-tadqiqotlari rejalarning Farg'ona vodiysi hududining tabiiy sharoiti, ijtimoiy holati, iqtisodiy imkoniyatlari, siyosiy-ekologik vaziyatini baholash va monitoringini olib borish hamda ta'lim jarayoniga tadbiiq etish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Farg'ona suv ombori ta'sir zonasidagi sug'oriladigan gidromorf tuproqlarning ekologik-meliorativ holati dinamikasini kompleks baholash hamda unga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot hududidagi tuproqlarning zamonaviy holatini baholash, jumladan, ularning agrofizik (granulometrik tarkib, zichlik, g'ovaklik, "arziq" qatlaminin xususiyatlari), agrokimyoviy (gumus, azot, fosfor, kaliyning yalpi va harakatchan shakllari) xossalari va meliorativ holatini (sho'rlanish darajasi va kimyoviy tarkibi) dala va laboratoriya tahlillari asosida aniqlash;

markaziy Farg'ona suv ombori (MFSO) ta'siri ostida tuproqlar sho'rlanishining 2010–2025 yillardagi fazoviy-vaqtinchalik dinamikasini masofaviy zondlash ma'lumotlari va GAT-texnologiyalari yordamida tahlil qilish, sho'rlanish darajasi va tipi bo'yicha raqamli xaritalar yaratish;

suv ombori ta'sirida o'zgargan sizot suvlar sathi va minerallasuvining tuproqlar sho'rlanishi, shuningdek, agrofizik va agrokimyoviy xossalarning o'zgarishiga ta'sirini baholash;

olingan natijalar asosida hudud tuproqlarining degradatsiyasini oldini olish, meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini barqaror oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar va ekologik-meliorativ tadbirlar majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Markaziy Farg‘ona suv ombori ta’sir zonasi va unga tutash hududlarning sug‘oriladigan gidromorf tuproqlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib tuproqlarning morfogenetik, agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalari, meliorativ xususiyatlari va ularning suv ombori ta’siridagi o‘zgarishlari hamda GAT texnologiyalari yordamida 2010 va 2025-yillar uchun tematik xarita-sxemalar va ekomeliorativ modellar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari: dala sharoitida tuproq kesmalarini o‘rganishda V.V.Dokuchayevning morfologik-profil usuli, laboratoriyada gumus miqdori — I.V.Tyurin, yalpi azot, fosfor va kaliy miqdori — Maltseva va Gritsenko, suvda eruvchan tuzlar — suvli so‘rim, usulda aniqlandi. Tadqiqot hududining tuproq-meliorativ holati, o‘simlik qoplami va namlik darajasining o‘zgarish dinamikasini aniqlashda masofadan zondlash usullaridan foydalanildi. Kosmik tasvirlar Landsat 7 ETM+ va Landsat 8 OLI sun‘iy yo‘ldoshlardan olindi. Kartografik materiallarni tayyorlashda ArcGIS 10.8 (GAT) dasturiy ta‘minotidan foydalanildi. Olingan ma‘lumotlarning o‘zaro bog‘liqlik darajasi Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti (r) orqali, chiziqli regressiya modellari esa T.M. Lillesand uslubi bo‘yicha shakllantirildi. Ma‘lumotlarga matematik-statistik ishlov berish B.A.Dospexov metodikasi asosida Microsoft Excel va SPSS dasturlari yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Markaziy Farg‘ona suv ombori ta’sir hududi va uning atroflaridagi tuproqlarining xossa-xususiyatlari va ekomeliorativ holati 2010-2015-2020-2025 yillardagi o‘zgarishlari dinamikasi hamda transformatsiyalanishi masofadan zondlash (NDVI) va matematik-statistik usullar yordamida ilk bor majmuaviy isbotlangan;

Markaziy Farg‘ona suv ombori ta’sirida tadrijiy rivojlanayotgan tuproqlarning diagnostik belgilari aniqlangan, sho‘rxok va kuchli sho‘rlangan o‘tloq arziqli saz tuproq - > yangi o‘zlashtirilgan o‘tloq va o‘tloq arziqli saz tuproq - > sug‘oriladigan va yangidan sug‘oriladigan o‘tloq va o‘tloq arziqli tuproq yo‘nalishida transformatsiyalanganligi isbotlanib, suv ombori atrofidagi gidrologik bosimning ortishi (suv yuzalarining 15 barobar kengayishi) va sizot suvlari sathining ko‘tarilishi o‘rtasida kuchli to‘g‘ri korrelyativ bog‘liqlik ($r=0.88$) aniqlangan;

ikkilamchi gidromorfizm va sho‘rlanish jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlari GIS texnologiyalari (NDVI, NDWI, SI indeksleri) yordamida aniqlanib, sho‘rlanishning ozuqa moddalarining harakatlanishiga cheklovchi ta’sirini tavsiflovchi matematik-statistik regressiya modellari ishlab chiqildi va arziq va gipsli qatlamlarning yuqori zichlik ($1,74 \text{ g/cm}^3$) va past g‘ovaklik (34%) tufayli kelib chiqadigan filtratsiyaga to‘sqinlik qiluvchi suv o‘tkazmaydigan to‘siq vazifasini bajarishi matematik jihatdan dalillangan;

suv omborining ta'sir zonasi va unga tutash hududlarni ekologik va meliorativ rayonlashtirish amalga oshirildi va mintaqada meliorativ sharoitlarni optimallashtirish va yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tuproqlarning haydalma qatlamida tuzlar miqdori 2–2,5% va undan yuqori, tuproq kesmasida esa 1–2% oralig'ida o'zgarishi aniqlangan; sizot suvlari sathi, ularning mineralizatsiyasi va tuproqlarning sho'rlanish holati bo'yicha 2010 va 2025 yillar uchun raqamli xaritalar yaratilgan; o'zgarishlar dinamikasining tahlili NDVI, NDWI va Si indeksleri vositasida amalga oshirilgan;

tadqiqot hududining 2010 va 2025 yillar uchun tuproq, uning sho'rlanishi, sizot suvlarining joylashish chuqurligi va minerallashtirish darajasini ifodalovchi xaritagrammalari tuzilgan va ular asosida hududning ekologik-meliorativ holati baholangan;

murakkab gidrologik sharoitdagi o'tloqi arziq-shoxli tuproqlarning inson omili ta'siridagi o'zgarishlari o'rganilib, ularning unumdorligini tiklash, saqlash va barqaror boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot vazifalarining dala, laboratoriya va kameral usullardan foydalangan holda bajarilganligi va maqsadga erishilganligi, nazariy va amaliy natijalarning uyg'unligi, tadqiqot natijalari variatsion-statistik tahlildan o'tkazilganligi, amaliyotga joriy qilinganligi, respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilganligi, shuningdek, OAK tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aniq statistik bog'liqliklar ($r = -0,7$ dan $-0,85$ gacha), gidromorf tuproqlarning shakllanishida antropogen-gidrologik omillar (suv ombori, baliqchilik hovuzlari) va litologik to'siqlar (arziq qatlami) o'rtasidagi o'zaro ta'sir qonuniyatlarining ochib berilganligi, shuningdek tuproqshunoslikning "tuproqlar melioratsiyasi" va "tuproq fizikasi" yo'nalishlarini yangi raqamli ma'lumotlarga boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan hududning qishloq xo'jaligidagi dolzarb muammolarini hal etishda foydalanilishi bilan belgilanadi, ishlab chiqilgan ilmiy-asoslangan tavsiyalar va GAT-texnologiyalari yordamida yaratilgan tuproqning sho'rlanishi, ozuqa moddalari bilan ta'minlanganligi kabi raqamli xaritalar agrotexnik va meliorativ tadbirlarni dalalarning o'ziga xos sharoitidan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan holda amalga oshirish, shuningdek masofadan zondlash hamda regressiya modellari vositalaridan foydalanib tuproq sho'rlanishining o'simlik biomassasiga (NDVI) ta'sirini va kutilayotgan hosildorlikni dala ishlarisiz, operativ nazorat qilish va bashoratlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Markaziy Farg'ona suv omborining ta'sir zonasi va unga tutash hududlar tuproqlarining ekomeliorativ holati bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Markaziy Farg‘ona suv ombori ta’sir zonasidagi sug‘oriladigan o‘tloqi saz va arziq-shoxli tuproqlarning agrokimyoviy, agrofizik xossalari hamda meliorativ holatini ArcGIS dasturi, NDVI indeksleri asosida baholash usullari, shuningdek, 2010–2024-yillar oralig‘idagi o‘zgarishlar dinamikasini aks ettiruvchi raqamli xaritalar Farg‘ona viloyatining Yozyovon tumani qishliq xo‘jaligi boshqarmasida hududiy yer resurslarini boshqarishda foydalanilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 27-avgustdagi 05/04-04-466-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tuproqlarning sho‘rlanish darajasi, sizot suvlari sathi va mineralizatsiyasini aniq bashorat qilish hamda ekomeliorativ tadbirlarni rejalashtirish imkonini bergan.

Yozyovon tumanidagi “Solijonov Rustamjon” va “Muhiddinova Bibiyoisha” fermer xo‘jaliklarining 39 gektar ekin maydoni uchun tuzilgan agrokimyoviy (fosfor va kaliy bilan ta‘minlanganlik) hamda sho‘rlanish kartogrammalari Farg‘ona viloyati Yozyovon tumanining fermer xo‘jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 27-avgustdagi 05/04-04-466-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu ishlanmalar mineral o‘g‘itlardan tabaqalashtirilgan holda foydalanish, zaharli tuzlar miqdoriga qarab sho‘r yuvish me‘yorlarini ilmiy asosda hisoblash va tuproq unumdorligini tiklash hamda qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari jami 7 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma‘ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 1 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslab berilgan. Xususan, Markaziy Farg‘ona tuproqlari va ularning meliorativ muammolari uzoq yillardan beri o‘rganilgan bo‘lsada, 2013-yilda ishga tushirilgan Markaziy Farg‘ona suv ombori (MFSO) ning bevosita ta’sir zonasidagi tuproqlarning ekologik-meliorativ holatiga ko‘rsatgan ta’sirini kompleks baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud emas. Shuningdek, hudud tuproqlaridagi o‘zgarishlar dinamikasini zamonaviy GAT va masofaviy zondlash ma‘lumotlari asosida tahlil qilish masalasi ham shu kunga qadar o‘z ilmiy yechimini topmagan. Bu holat hududning ekologik holatini barqaror boshqarish va bashoratlashda qiyinchiliklar keltirib chiqarib, tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiyaning **“Sug‘oriladigan tuproqlarining ekameliorativ holatini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, suv omborlarining (masalan, Assuan, Uch dara, Danszyankou) atrof-muhitga, jumladan, tuproqlarning sho‘rlanishi va botqoqlanishiga salbiy ta‘siri xalqaro miqyosda o‘rganilgan. Markaziy Osiyoda ham bu keng ko‘lamli ekologik-meliorativ muammolarni keltirib chiqarishgan, shuningdek so‘nggi yillarda tuproqlarning ekameliorativ holatini baholashda masofadan zondlash (MZ) va geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari, jumladan NDVI, NDWI, SI kabi spektral indekslar yetakchi yo‘nalishga aylanganligi to‘g‘risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududining tabiiy sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida hudud iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yillik yog‘in miqdori 172 mm, bug‘lanish 1200–1500 mm, bu tuproqlarda tuz to‘planishiga tabiiy moyillikni yuzaga keltiradi. Hidrogeologik jihatdan vodiyni markaziy qismi sizot suvlarining to‘planish va bug‘lanish zonasi hisoblanadi. Sizot suvlari asosan yirik kanallar va sug‘oriladigan maydonlardan shimiluvchi infiltratsion suvlar hisobiga to‘yinadi. Markaziy Farg‘ona suv ombori qurilishi natijasida sizot suvlari sathining ko‘tarilishi kuzatilib, bu ikkilamchi sho‘rlanish va gidromorfizm jarayonlarining kuchayishiga olib kelmoqda degan hulosalar qilingan

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari va usullari”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotda klassik dala-laboratoriya va zamonaviy geoaxborot-statistik tahlil usullarini jamlagan majmuaviy yondashuv qo‘llanilgan. Dala ishlari doirasida 25 ta tuproq kesmasi o‘rganilgan, ularning morfologik tavsifi tuzilgan va genetik qatlamlaridan namunalar olinib, sizot suvlari sathi o‘lchangan. Laboratoriyada tuproqning tuz tarkibi va miqdori, agrokimyoviy (gumus, umumiy azot, harakatchan fosfor va kaliy) va agrofizik (hajmiy massa, g‘ovaklik) xossalari standart usullarda aniqlangan. Hududiy o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun ArcGIS va QGIS dasturlarida (IDW, kriging interpolyasiya usullari) raqamli xaritalar yaratildi. Ma‘lumotlar Excel, SPSS va Python dasturlarida statistik qayta ishlanib, korrelyatsion, klaster va faktorli tahlil usullari qo‘llanilganligi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tuproq qoplaminin genezisi, evolyutsiyasi va zamonaviy holati”** deb nomlangan to‘rtinchi bobining **“Hududning paleogeografik sharoitlari va tuproq hosil qiluvchi ona jinslari”** nomli 4.1-§ da tadqiqot hududining geomorfologik o‘rni, uning paleogeografik o‘tmishi va zamonaviy tuproq-meliorativ holatini tavsiflangan. Tarixiy ma‘lumotlar va rekonstruksiyalarga ko‘ra, hudud uzoq vaqt davomida gidromorf sharoitda rivojlangan. U o‘zaro tutashgan ko‘llar, qalin qamishzorlar, botqoqliklar hamda tizimli qumtepa va barxanlardan iborat murakkab relyefga ega bo‘lgan. Ushbu ko‘l-prolyuvial tekislikda to‘plangan cho‘kindilarning mexanik tarkibi dag‘al qumdan eng mayda loy zarrachalarigacha bo‘lgan keng diapazonda o‘zgarib, tuproq kesmasida turli qatlamlarning navbatlanishiga olib kelgan. Iqlimning quruq va nam fazalarining davriy almashinuvi hamda suv sathi tebranishlari natijasida cho‘kindilar diagenoz jarayonlariga uchragan. Aynan shu jarayonlar, ya‘ni cho‘kindilarning zichlanishi, suvsizlanishi va yoriqlarda gips hamda karbonatlarning kristallanishi natijasida tuproqning quyi qismida meliorativ holatni

keskin qiyinlashtiruvchi, zich, suv o'tkazuvchanligi past bo'lgan "arziq" va "shox" qatlamlari vujudga kelgan.

XX asrda A.N. Rozanov, M.A. Pankov va "Uzgirozem" instituti tomonidan tuzilgan tuproq xaritalari hududning yirik gidrotexnik inshootlar qurilishidan oldingi, deyarli tabiiy holatini aks ettiradi. Ushbu xaritalarda tadqiqot maydoni asosan "mustahkamlanmagan do'ng-tepa tizma qumlari majmuasi", "sho'rxokli tuproqlar kompleksi" hamda turli darajada sho'rlangan o'tloqi saz, o'tloq-cho'l va o'tloq-botqoq tuproqlari sifatida tasvirlangan. Bu davrda hududda eol jarayonlari faol bo'lib, antropogen ta'sir sezilarli darajada bo'lmagan.

Hudud tuproq qoplaminig evolyutsiyasida tub burilish Katta Andijon kanalining (KAK) va, ayniqsa, MFSONing qurilishi bilan bog'liq. Qo'riq yerlarning ommaviy o'zlashtirilishi, sug'orish va kollektor-zovur tarmoqlarining qurilishi natijasida avvalgi tabiiy tuproqlar o'rnida yangi sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar paydo bo'ldi. MFSONing qurilishi hududning suv ta'minotini yaxshilash va ekin maydonlarini kengaytirish kabi ijobiy o'zgarishlar bilan birga, sizot suvlari sathining ko'tarilishi, yerlarning botqoqlanishi va ikkilamchi sho'rlanish jarayonlarining kuchayishi kabi salbiy ekomeliorativ oqibatlarni ham keltirib chiqardi.

Olib borilgan dala tadqiqotlari va tahlillar natijasida hududning zamonaviy tuproq xaritasi yaratildi va unda quyidagi asosiy tuproq ayirmalari ajratildi:

qalin qum yotqiziqlarida shakllangan qumli o'tloq va qumli cho'l tuproqlari;

yangi o'zlashtirilgan o'tloq saz tuproqlar;

sug'oriladigan o'tloq arziq-shoxli saz tuproqlar;

sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan, gil qavatli sug'oriladigan o'tloq saz tuproqlar;

qum-qumloqli o'tloq-botqoq va botqoqlashgan tuproqlar;

antropogen ta'sirga uchramagan tizmalı do'ng-tepa qumlari va barxanlar.

4.2-§ da "**Tuproqlarning antropogen transformatsiyasi va morfogenetik xususiyatlari**" tavsiflangan. Gidromorf tuproqlarning (botqoq, o'tloq-botqoq, o'tloq) paydo bo'lishi mintaqaning umumiy arid iqlimigagina emas, balki sizot suvlarining yuzaga yaqin joylashishi va doimiy namlikning mavjudligi kabi mahalliy sharoitlarga bog'liq. Tadqiqot hududida sug'oriladigan o'tloq saz tuproqlar asosiy tuproq tipi hisoblanadi.

Sug'oriladigan o'tloq saz tuproqlarning haydalma (A_h) va haydov osti ($A_{h.o.}$) qatlamlari ko'kimtir-sur tusga, bo'shoq, uvoqchali strukturaga ega. Kesmaning B_1 va B_k qatlamlari rang-barang dog'lar mozaikasiga ega: ko'kimtir-sur tus fonida qo'ng'ir, zang va oqish dog'lar uchraydi. Bu namlik tartibotining mavsumiy o'zgarib turishini (qurish va namlanish davrlari almashinuvini) ko'rsatib, "saz" tuproqlari uchun xos bo'lgan asosiy diagnostik belgidir. Oq ko'zanaklar va karbonatli konkretsiyalarning mavjudligi ham bu tuproqlar uchun xarakterlidir. Kesmaning quyi qismi ko'p xollarda mergel-sho'xli (gips-karbonatli) bo'lib, zich qovushmaga ega. Ular orasida qum-qumloq hamda qumli qatlamlar uchraydi. Tuproqlar kesmasining eng quyi qatlamlari qumloq-qumli bo'lib, odatda suvga to'yingan bo'ladi.

Sugʻoriladigan oʻtloq arziqli (gips-karbonatli) saz tuproqlar koʻl-prolyuvial tekislikning eng keng tarqalgan tuproqlari hisoblanadi. Ularning eng muhim xususiyati ularning kesmasida meliorativ holatni keskin qiyinlashtiruvchi, zich, suv oʻtkazmaydigan, gips va karbonatlarga boy “arziq” qatlamining mavjudligidir. Koʻp hollarda bu qatlam ustida yer tekislash ishlari natijasida hosil boʻlgan, qalinligi 1,5 metrgacha yetadigan texnogen qum qatlami yotadi. Arziq qatlamlari turli shakllarda – uzluksiz sementlashgan qobiq, slanetssimon strukturalar yoki konkretsiyalar toʻplami koʻrinishida uchraydi. Kesmalari oʻziga xos uch yarusli tuzilishga ega:

1. Kesmaning xususiy chin tuproq qismi yoki “arziq usti” qatlami. Baʼzi hollarda 10% gacha mayda kristalli yoki unimon gips uchrashi mumkin.

2. Arziqli oʻrta qatlami: Bir nechta qatlamchalardan iborat boʻlib, tarkibida 10–70% gips va 15–40% karbonatlar saqlaydi. Bu qatlam juda zich va sementlashgan.

3. Quyi “shoxli” qatlam: Yuqori darajada karbonatli - 30–60%. Karbonatlar tuproq massasiga shimilgan, konkresiyalar, va sementlashgan qobiq holida uchraydi.

Oʻtloq-botqoq tuproqlar oʻtloq va botqoq tuproqlar oʻrtasidagi oraliq holatni egallab, doimiy kuchli namlanish sharoitida shakllanadi. Ularning asosiy belgisi – gleylanish jarayonining butun kesma boʻylab tarqalganligidir. Sugʻorish, ayniqsa, sholi ekish bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Bu tuproqlarda, butun kesma boʻylab yashil-koʻk jilvalar va qoramtir-koʻkish dogʻlarning uchrashi kuchli va doimiy botqoqlanish jarayonidan dalolat beradi.



Shoʻrxok-botqoq tuproqlar esa MFSOga tutash hududlarda ikkilamchi tarzda shakllangan. Bu yerda shoʻrlanish va botqoqlanish jarayonlari birgalikda, juda kuchli namoyon boʻladi. Suv omboriga shimoliy-gʻarbdan tutashgan yerlarning tuproq yuzasi oppoq tuz qatlami bilan qoplangan (tuz miqdori 5% dan ortiq). Kesmaning butun chuqurligi boʻylab koʻkimtir-havorang ranglar dominantlik qiladi. Sizot suvlari 70 sm chuqurlikda joylashgan. Shoʻrga va namga chidamli oʻsimliklar (chuchukmiya, qamish) keng tarqalgan. Ushbu belgilar tuproqning “Shoʻrxok-botqoq tuproq” shakillanganligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, Markaziy Fargʻonaning zamonaviy tuproq qoplami oʻzida ham hududning tabiiy gidromorf rivojlanish merosi (“arziq” qatlamlari, gleylanish), ham uzoq muddatli sugʻoriladigan dehqonchilik taʼsiri (haydalma qatlam, ikkilamchi shoʻrlanish va botqoqlanish) belgilarini mujassam etgan murakkab tuzilishga ega.



“Tuproqning agrokimyoviy xossalari” 4.3-§ da yoritilgan. Hudud tuproqlari unumdorligining evolyutsiyasini tushunish uchun 2024-yilda olingan maʼlumotlarni 1977–1978 yillardagi koʻrsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilindi (1-va 2- rasm). Bu tahlil soʻnggi 45-50 yil ichida tuproq unumdorligida roʻy bergan ham ijobiy, ham salbiy tendentsiyalarni ochib berdi.

1. **Gumus va azot miqdoridagi ijobiy oʻzgarishlar.** Haydalma qatlamdagi gumus miqdori oʻrtacha 0,097% ga, umumiy azot esa 0,046% ga oshgan. Haydov osti qatlamida ham gumus oʻrtacha 0,1% ga, azot esa 0,018% ga koʻpaygan. Bu ijobiy oʻzgarish, ehtimol, uzoq yillar davomida organik va mineral oʻgʻitlardan

foydalanish, almashlab ekishni joriy qilish va dehqonchilik madaniyatining nisbatan yaxshilanganligi bilan bog‘liq. Biroq, bu o‘shiga qaramay, tuproqlarning umumiy gumus bilan ta‘minlanganlik darajasi pastligicha qolgan.



1-rasm. Gumus va NPK miqdorlari diagrammasi (2024 y ma‘lumotlari bo‘yicha tuzilgan)



2- rasm. Gumus va NPK miqdorlari diagrammasi (1977-1978 yy ma‘lumotlari bo‘yicha) [1]

2. Fosfor va kaliy zaxiralarining kamayishi: Haydalma qatlamda umumiy fosfor o‘rtacha 0,004% ga, umumiy kaliy esa 0,425% ga kamaygan. Haydov osti qatlamida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 0,006% va 0,555% ga pasaygan.

Harakatchan shakllari: 2024-yilda haydalma qatlamda harakatchan fosfor miqdori avvalgi yillarga nisbatan oʻrtacha 3,65 mg/kg ga kam boʻlgan. Harakatchan kaliy miqdori haydalma qatlamda 70,5 mg/kg ga va haydov osti qatlamida 79,5 mg/kg ga qisqargan. Istisno tariqasida, haydov osti qatlamida harakatchan fosfor miqdorining 4,05 mg/kg ga ortishi kuzatilgan, bu sugʻorish suvlari bilan fosforning quyi qatlamlarga yuvilishi bilan izohlanishi mumkin.

Bunday salbiy tendentsiyaning asosiy sabablari:

- Intensiv dehqonchilik sharoitida ekinlar koʻp miqdorda fosfor va kaliyni oʻzlashtiradi va hosil bilan olib chiqiladi;

- Koʻp hollarda dehqonlar asosan azotli oʻgʻitlarga eʼtibor qaratib, hosil bilan olib chiqilgan fosfor va kaliy oʻrnini toʻldirish uchun fosforli va kaliyli oʻgʻitlarni yetarli darajada qoʻllamaydilar;

- Tadqiqot hududida koʻp yillar davomida sholi yetishtiriladi, bu esa tuproqda oʻziga xos biokimyoviy sharoitlarni yaratib, fosfor va kaliyning oʻsimlik oʻzlashtira olmaydigan shakllarga oʻtishiga yoki sugʻorish suvlari bilan yuvilib ketishi mumkin.

Tadqiqotda **arziqli qatlamning** agrokimyoviy holati alohida oʻrganildi va uning unumdorlik uchun oʻta noqulay sharoitga ega ekanligi tasdiqlandi. Bu qatlamda gumus miqdori juda past (0,15–0,18%), umumiy fosfor (0,07–0,11%) va umumiy kaliy (0,95–1,10%) zaxiralari ham keskin kamaygan. Eng muhimi, oʻsimlik uchun zarur boʻlgan harakatchan fosfor (5,0–12,0 mg/kg) va almashinadigan kaliy (0,92–110 mg/kg) miqdori nihoyatda past darajada. Bu natijalar arziq qatlamda oziq moddalarning deyarli yoʻqligini va uning tuproq unumdorligini cheklovchi asosiy omillardan biri ekanligini koʻrsatadi.

“Tuproqlarning shoʻrlanishi” nomli 4.4-§.da tadqiqot hududi tuproqlarining turli darajada shoʻrlanishi mintaqaning eng jiddiy meliorativ muammoligi koʻrsatilgan. Sugʻorma dehqonchilik, mavjud kollektor-drenaj tarmoqlari, muntazam shoʻr yuvish va hatto sholi yetishtirish kabi intensiv chora-tadbirlarga qaramasdan, koʻplab maydonlarda samarali tuzsizlantirishga erishilmagan. Bu muammoning asosiy sababi hudud tuproqlarining oʻziga xos morfogenetik tuzilishi, xususan, haydalma qatlam ostida joylashgan “arziq” qatlami bilan bogʻliqdir.

Oʻtloqi-arziqli tuproqlarning kesmasida qalinligi 0,2–0,5 dan 1–1,5 metrga yetadigan, gips-karbonatli “arziq” qatlami shakllangan. Ushbu qatlam oʻta yuqori zichlik (1,6–2,1 g/sm³), kichik gʻovaklik (25–40%) va juda past suv oʻtkazuvchanlik (sutkasiga 0,003 m dan kam) kabi noqulay fizik xossalarga ega. Bu xususiyatlar “arziq” qatlamini bir necha turdagi toʻsiqqa aylantiradi:

- Uning yuqori zichligi oʻsimliklarning ildiz tizimlari rivojlanishiga va chuqurga kirib borishiga yoʻl qoʻymaydi. Bu mexanik toʻsiq.

- Suv oʻtkazuvchanligining pastligi namlikning vertikal harakatini keskin cheklaydi, bu esa shoʻr yuvish samaradorligini deyarli yoʻqqa chiqaradi. Tuproq shoʻrini yuvishga berilgan suv qatlamdagi mayda kapillyarlarni toʻldirib, keyingi oqimga toʻsqinlik qiladi. Bu gidrologik toʻsiq;

- Arziq qatlami tuzlar uchun o'ziga xos "qalqon" - geokimyoviy baryer vazifasini o'taydi. Natijada sho'r yuvish paytida tuzlar tuproq profilidan to'liq chiqib ketmaydi, balki asosan vertikal bo'ylab qayta taqsimlanadi.

Tadqiqot hududi tuproqlari uchun tuzlarning notekis vertikal taqsimlanishi xosdir. Odatda, sho'rlanish profili quyidagicha ko'rinishga ega:

Haydalma qatlamda (0-30 sm) sho'rlanish o'rtacha darajada bo'ladi. Bahorgi yog'ingarchilik va vegetatsion sug'orishlar hisobiga tuzlarning bir qismi vaqtincha quyi qatlamlarga yuviladi. Masalan, 15-kesmada quruq qoldiq miqdori 1,191% ni tashkil etadi.

Tuzlarning asosiy akkumulyatsiyasi o'rta qismning arziq qatlamida sodir bo'ladi. Sizot suvlaridan kapillyar ko'tarilgan namlik shu qatlamda bug'lanib, o'zi bilan olib chiqqan tuzlarni shu yerda to'playdi. Sho'rlanish darajasi bu qatlamda "juda kuchli" darajagacha yetadi. 15-kesma misolida ko'rish mumkinki, tuz miqdori 116-140 sm chuqurlikda maksimal 2,181% ga yetadi.

Tuproq kesmasining quyi qismida sizot suvlariga yaqinlashgan sari sho'rlanish darajasi yana o'rtacha va past darajagacha kamayadi.

Hudud uchun asosan sulfatli va sulfat-xloridli sho'rlanish tipi xosdir. Tuzlar tarkibida o'simliklar uchun o'ta zaharli hisoblangan magniy va natriy tuzlari ko'p. Ayrim botqoq-sho'rxok tuproqlarning yuqori qatlamlarda magniy miqdori natriydan ortiq bo'lishi kuzatiladi, chuqurlashgan sari bu nisbat o'zgaradi.

Tadqiqot hududi umuman olganda, o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlar toifasiga kiradi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, hududning qariyb uchdan ikki qismi (64%) jiddiy meliorativ muammolarga ega:


Sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan tuproqlar – 36%; O'rta sho'rlangan tuproqlar – 44%; Kuchli sho'rlangan tuproqlar – 20%.

Yuqori sho'rlanish darajalari MFSONing shimoli-g'arbiy, g'arbiy qismlarida, sizot suvlari sathi yer yuzasiga yaqin va minerallashuvi yuqori bo'lgan uchastkalarda qayd etilgan. Hududning periferik qismlaridagi qumli tuproqlar esa yaxshi tabiiy drenajga ega bo'lganligi sababli kamroq sho'rlangan.

4.5-§ da "Granulometrik tarkib va umumiy fizik xossalar" yoritigan. Tadqiqot hududi tuproqlari tabiiy genetik jarayonlar va intensiv antropogen ta'sir natijasida shakllangan murakkab va xilma-xil fizik xususiyatlarga ega (3- rasm).

Tadqiqot hududi tuproqlarining granulometrik tarkibi yuqori darajadagi notekislik bilan ajralib turadi. Bu holat ikki asosiy omil ta'sirida vujudga kelgan:

Antropogen omillar: Sug'oriladigan dehqonchilik uchun yerlarni o'zlashtirish davrida amalga oshirilgan yer tekislash ishlari tuproq qoplaminin tabiiy tuzilishini tubdan o'zgartirgan. Qumli do'ng va tepaliklar kesilib, pastqamliklarga surilgan. Bu jarayon natijasida bir maydonning o'zida ham qalin (100-120 sm gacha) texnogen qum qatlamlari, ham ilgari chuqurda joylashgan og'ir qumoq va gil qatlamlarining yer yuzasiga yaqinlashib qolishi kuzatiladi. Keyinchalik, uzoq yillik sug'orish, kollektor-zovurlardan chiqarilgan loyqalar va organik o'g'itlar solinishi hisobiga yuqori qatlamlar mayda loyqa va chang zarrachalari bilan boyitilgan.



3- rasm. Sug'oriladigan o'tloqi arziq tuproqlarning granulometrik tarkibi

Tabiiy omillar: MFSO hududning ko'l-prolyuvial tekislik sharoitida shakllanganligi sababli, tuproq kesmasida turli yotqiziqlar navbatlanib joylashgan. Kesmaning haydalma va haydov osti qatlamlari qumdan og'ir gillargacha o'zgarasa, o'rta qismi asosan gil qatlamlaridan, pastki qismi esa qumlardan tashkil topgan.

Bu omillar birgalikda tuproq kesmasida suv-fizik xossalari keskin farq qiluvchi qatlamlarning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Tuproq zichligi uning fazoviy tuzilishi, zarrachalarining joylashish tartibi va antropogen ta'sirlarga nisbatan eng sezgir ko'rsatkichlardan biridir. Haydalma qatlamda bu ko'rsatkich 1,0–1,35 g/sm³ atrofida bo'lsa, zichlashgan quyi qatlamlarda 1,7–1,9 g/sm³ gacha yetadi. Tadqiqot hududida tuproq zichligining yuqoriligi asosiy muammolardan biri bo'lib, bu bir necha omillar bilan bog'liq:

O.T. Sobitovning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tuproq tarkibidagi gips miqdorining ortishi zichlikning keskin oshishiga olib keladi. Gipslashmagan tuproqlarda haydalma qatlam zichligi optimal (1,25-1,28 g/cm³) bo'lsa, o'rtacha gipslashgan tuproqlarda bu ko'rsatkich 1,58-1,74 g/sm³ ga teng.

V.Yu. Isaqovdan keltirilgan 12-kesma ma'lumotlariga ko'ra, o'rta qismdagi arziq qatlamlarida zichlik 1,50 dan 1,71 g/sm³ gacha, pastki shox qatlamlarida esa 1,63 dan 1,70 g/sm³ gacha o'zgaradi.

Hududda I.N. Mamajonov tomonidan aniqlangan metamorflashgan qatlamlar anomal darajada yuqori zichlikka – 2,01 g/sm³ ga ega. Bu qatlamlar suv havzalarida mayda dispersli zarrachalarning cho'kishi va keyinchalik zichlashishi natijasida hosil bo'lgan.


G'ovaklik tuproqning suv va havo rejimini belgilovchi eng muhim xususiyat bo'lib, u zichlikka teskari proporsionaldir. Optimal sharoitda haydalma qatlam g'ovakliligi 50–60% ni tashkil etishi kerak. Tadqiqot hududida zichlikning yuqoriligi g'ovaklikning keskin kamayishiga olib kelgan:

